Mintaqaviy turizm xizmatlari infratuzilmasining holati va muammolari

Utepbergenova Miyassar Jumaxmet qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Turizm va mehmondo‘stlik yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

utepbergenovamiyassar@gmail.com +998904217407

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintaqaviy turizm xizmatlari infratuzilmasining hozirgi holati, uning rivojlanish darajasi hamda mavjud muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, turizm infratuzilmasini takomillashtirish yo‘llari, xorijiy tajriba va O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan islohotlar asosida ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, infratuzilma, mintaqaviy rivojlanish, transport, mehmonxona xo‘jaligi, xizmatlar sifati, turizm muammolari, iqtisodiy rivojlanish

Kirish. Turizm sohasi bugungi kunda hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, mintaqaviy turizm infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi sayyohlar oqimiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, infratuzilmasi rivojlangan hududlar ko‘proq turistlarni jalb qiladi va yuqori daromadga ega bo‘ladi.

Mintaqaviy turizmni rivojlantirish O‘zbekistonda davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu borada PF-5611-son Farmon[1] hamda PQ-4861-son Qaror[2] asosida hududiy turizm infratuzilmasini rivojlantirish, turizm zonalarini tashkil etish va investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Davlat rahbarining siyosiy irodasi va strategik xatti-harakatlari turizmni mamlakatimiz iqtisodiyotining ustuvor tarmog‘iga aylantirishga qaratilgan. 2025-yil 18-noyabrda imzolangan farmonga ko‘ra, 2030-yilgacha turizm sohasining mamlakat YAIMidagi ulushini 3.5 % dan 7 % gacha olib chiqish, xorijiy turistlar sonini yillik 10 milliondan 20 milliongacha ko‘paytirish, turistik xizmatlar eksportini 6 milliard dollardan yuqori darajaga yetkazish kabi katta maqsadlar belgilangan[6].

2023-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham turizm sektorini rivojlantirishni mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab, turistik klasterlar tashkil etish, mehmonxona jihatdan imkoniyatlarni kengaytirish, ichki va xorijiy turizmni rivojlantirish, milliy va ma’naviy boyliklarimizni dunyo jamoatiga tanitish kabi ustuvor vazifalarni o‘z ichiga olgan[7].

Asosiy qism. So‘nggi yillarda hududda turizm xizmatlari infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, turizm ob’ektlari, mehmonxonalar, xostellar, mehmon uylari hamda turistik kompaniyalar soni bosqichma-bosqich ortib bormoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 30 dan ortiq mehmonxona, o‘nlab xostellar hamda mehmon uylari faoliyat yuritmoqda, shuningdek, hududda 90 ga yaqin turizm

kompaniyalari xizmat ko‘rsatmoqda . Bu esa hududda turizm xizmatlari bozorining shakllanib borayotganini ko‘rsatadi.

Turistik oqim ko‘rsatkichlari ham hududda turizm infratuzilmasining rivojlanish tendensiyasini aks ettiradi. Masalan, 2025-yilning dastlabki yetti oyida Qoraqalpog‘iston Respublikasiga 199 mingdan ortiq xorijiy turistlar tashrif buyurgan bo‘lib, ichki turizm doirasida esa 1,6 milliondan ortiq mahalliy sayyohlar hududga tashrif buyurgan . Bu ko‘rsatkichlar mintaqada turizmga bo‘lgan qiziqish ortib borayotganini hamda infratuzilma rivojlanishi uchun yangi talablarni yuzaga keltirayotganini ko‘rsatadi[8].

Hududda turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida yangi investitsiya loyihalari ham amalga oshirilmoqda. Jumladan, Ellikqal’a tumanidagi Akchakul ko‘li hududida zamonaviy turistik rekreatsiya zonasi barpo etilishi rejalashtirilgan bo‘lib, mazkur loyiha doirasida mehmonxonalar, dam olish maskanlari, mehmon uylari hamda umumiy ovqatlanish obyektlari qurilishi ko‘zda tutilgan. Ushbu loyiha nafaqat turizm infratuzilmasini rivojlantirish, balki hududda yangi ish o‘rinlari yaratishga ham xizmat qiladi .

Shu bilan birga, Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm infratuzilmasining rivojlanishiga qaramasdan, qator muammolar ham mavjud. Avvalo, ayrim turistik obyektlarga olib boruvchi transport infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi turistlar oqimining barqaror o‘sishiga to‘sqinlik qilmoqda. Ayrim hududlarda mehmonxona xo‘jaligi, transport xizmati, zamonaviy servis xizmatlari hamda turistik axborot tizimlari yetarli darajada shakllanmagan. Bundan tashqari, turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash, marketing faoliyatini rivojlantirish hamda hududiy turistik mahsulotlarni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish masalalari ham dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, Orol dengizi inqirozi bilan bog‘liq ekologik muammolar ham hudud turizmining rivojlanishiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatmoqda. Orolbo‘yi hududida yuzaga kelgan ekologik muammolar infratuzilmaning rivojlanish jarayoniga ma’lum darajada salbiy ta’sir ko‘rsatsa-da, ayni paytda ekologik turizm, ilmiy turizm va ekstremal turizm yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun ham muayyan imkoniyatlar yaratmoqda.

2019-yilda hududga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 85 ming nafarni, ichki turistlar soni esa 450 ming nafarni tashkil etgan. Bu davrda hududda 70 ta joylashtirish vositasi hamda 35 ta turizm kompaniyasi faoliyat yuritgan bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar mintaqada turizm xizmatlari infratuzilmasining shakllanish bosqichida ekanligini ko‘rsatadi.[3]

2020-yilda esa butun dunyo bo‘yicha yuzaga kelgan COVID-19 pandemiyasi ta’sirida turizm sohasida keskin pasayish kuzatilgan. Natijada Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 30 ming nafargacha, ichki turistlar soni esa 210 ming nafargacha kamaygan. Ushbu holat turizm sektorining tashqi omillarga sezgirligini hamda hududiy turizm infratuzilmasining barqarorligini ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi.[4]

Mintaqaviy turizm infratuzilmasi tarkibiga transport tizimi, mehmonxonalar, umumiy ovqatlanish obyektlari, madaniy-ko‘ngilochar maskanlar va axborot xizmatlari kiradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Xususan: yangi mehmonxonalar va xostellar soni oshdi; 2023–2024-yillarda turizm oqimi yanada sezilarli darajada oshgan. Xususan, 2023-yilda hududga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 200 ming nafarga yetgan bo‘lsa, ichki turistlar soni 1,8 million nafardan oshgan. 2024-yilda esa xorijiy turistlar soni 200,7 ming nafarni, ichki turistlar soni esa 2 million nafarga yaqinlashgan. Shu bilan birga, joylashtirish vositalari soni 112 taga, turizm kompaniyalari soni esa 80 taga yetgan.[5]

Mazkur ko‘rsatkichlar Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm xizmatlari infratuzilmasining so‘nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanib borayotganini ko‘rsatadi. Biroq turistlar oqimining tez

sur’atlarda ortib borishi mavjud infratuzilmaga qo‘yiladigan talablarni ham oshirmoqda. Shu sababli transport, mehmonxona xo‘jaligi, servis xizmatlari hamda turistik axborot tizimlarini yanada rivojlantirish mintaqada turizmni barqaror rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish va Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm xizmatlari sohasining barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida bir qator ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin. Avvalo, hududda turizm infratuzilmasini kompleks rivojlantirishga qaratilgan hududiy dasturlarni yanada takomillashtirish, transport va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda turistik obyektlarga yetib borish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Shuningdek, turizm xizmatlari sifatini oshirish maqsadida mehmonxona xo‘jaligi, umumiy ovqatlanish, gidlik va servis xizmatlari tizimini zamonaviy standartlar asosida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, hududning turistik salohiyatini xalqaro miqyosda targ‘ib qilish, zamonaviy marketing texnologiyalari va raqamli platformalardan keng foydalanish orqali turistik mahsulotlarni ilgari surish lozim. Shu bilan birga, turizm sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish, turizm ta’limi va amaliyot o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish ham hududiy turizm infratuzilmasini rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir.

Xulosa. Umuman olganda, Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm xizmatlari infratuzilmasini izchil rivojlantirish, mavjud muammolarni tizimli ravishda bartaraf etish hamda hududning tabiiy va madaniy resurslaridan samarali foydalanish orqali mintaqaviy turizmning barqaror rivojlanishiga erishish mumkin. Bu esa nafaqat hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishga, balki aholining bandligini oshirish, ijtimoiy farovonlikni ta’minlash hamda hududning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “Turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5611-son Farmoni**.**
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-iyundagi “Turizm sohasini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4861-son Qarori**.**
3. UNWTO World Tourism Barometer, 2023.
4. World Travel & Tourism Council Report, 2022.
5. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi ma’lumotlari, 2023.
6. https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-turizm-qomitasi-faoliyatini-tashkil-etish-va-turizm-sohasini-zhadal-rivozhlantirish-chora-tadbirlari-togrisida
7. https://www.apta.uz/en/news
8. https://uz.kursiv.media/en/2025-08-24/karakalpakstan-welcomes-nearly-200000-foreign-tourists-in-seven-months/?utm